



A STUDY OF A SYSTEM OF DIDACTIC EXERCISES AIMED AT TRAINING SPECIALIZED TRANSLATORS BASED ON INFORMATION RESOURCES

Khilolakhon Botiraliyeva Bakirova

*PhD in Pedagogical Sciences, Associate Professor
Faculty of Translation Studies
Uzbekistan State World Languages University
Tashkent, Uzbekistan
ms.khilola@bk.ru*

<https://orcid.org/0000-0002-5801-2472>

<https://doi.org/10.36078/1778831304>

Abstract. This study examines the effective use of information resources in the training of specialized translators. In modern translation practice, digital technologies, electronic dictionaries, terminological databases, and online platforms play a significant role. The main objective of the study is to develop an effective system of didactic exercises based on information resources for training specialized translators and to determine its practical effectiveness. To achieve this goal, several research tasks were identified. First, theoretical sources related to specialized translation and translation competence were thoroughly analyzed. Then, the role and importance of information resources in translation education were clarified. At the next stage, a system of didactic exercises was developed and scientifically classified. This system was tested in the educational process. Finally, the obtained results were analyzed and generalized. The methodological basis of the study includes competence-based, integrative, and learner-centered approaches. In addition, the theories of constructivism and connectivism were applied as methodological foundations. The study employed methods such as theoretical analysis, observation, questionnaires, experimental research, as well as statistical and qualitative analysis of the results. The findings of the study demonstrate that the system of didactic exercises based on information resources is highly effective in developing students' translation competence. In particular, significant improvements were observed in terminological accuracy, text-processing skills, independent thinking, and decision-making in problem situations. The use of digital tools also enhanced students' motivation and engagement. The findings of the study indicate that the application of information resource-based didactic exercises improves the effectiveness of training specialized translators. However, for this process to be effective, it is essential to ensure thorough methodological planning, develop teachers' digital competence, and provide appropriate technological infrastructure. This approach contributes to the training of qualified translators who meet the demands of the modern labor market.

Keywords: specialized translation; translation competence; information resources; system of didactic exercises; digital technologies; translation education; terminological databases; electronic dictionaries; independent thinking; integrative approach.

SOHAVIY TARJIMONLARNI AXBOROT RESURSLARI ASOSIDA TAYYORLASHGA YO‘NALTIRILGAN DIDAKTIK MASHQLAR TIZIMI TADQIQI

Xilolaxon Botiraliyevna Bakirova

Ped. f.f.d. (PhD), dotsent
O‘zbekiston davlat jahon tillari universitet
Toshkent, Uzbekistan

Annotatsiya Mazkur tadqiqot ixtisoslashgan tarjimonlarni tayyorlash jarayonida axborot resurslaridan samarali foydalanish masalasiga bag‘ishlangan. Zamonaviy tarjima amaliyotida raqamli texnologiyalar, elektron lug‘atlar, terminologik bazalar va onlayn platformalar muhim o‘rin egallamoqda. Shu sababli tarjimonlik kompetensiyasini shakllantirishda didaktik mashqlar tizimini zamon talablariga mos ravishda takomillashtirish zarurati yuzaga kelmoqda. Mazkur tadqiqotning maqsadi — axborot resurslari asosida ixtisoslashgan tarjimonlarni tayyorlashga yo‘naltirilgan samarali didaktik mashqlar tizimini ishlab chiqish va uning amaliy samaradorligini aniqlash. Mazkur vazifaga erishish uchun tadqiqot doirasida bir qator muhim vazifalar belgilandi. Avvalo, ixtisoslashgan tarjima va tarjimonlik kompetensiyasiga oid nazariy manbalar chuqur tahlil qilindi. Ikkinchidan, axborot resurslarining tarjima ta‘limidagi o‘rni va ahamiyati aniqlashtirildi. Keyingi bosqichda didaktik mashqlar tizimi ishlab chiqilib, u ilmiy asosda tasniflandi. Ushbu ishlab chiqilgan mashqlar tizimi ta‘lim jarayonida amaliy jihatdan sinovdan o‘tkazildi. Yakunda esa olingan natijalar tahlil qilinib, umumlashtirildi. Tadqiqotning metodologik asosi tadqiqot kompetensiyaga asoslangan yondashuv, integrativ yondashuv hamda shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim tamoyillariga tayanadi. Shuningdek, konstruktivizm va konnektivizm nazariyalari metodologik asos sifatida qo‘llanildi. Tadqiqotda nazariy tahlil, kuzatish, so‘rovnoma, tajriba-sinov ishlari hamda natijalarni statistik va sifat jihatdan tahlil qilish usullaridan foydalanildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, axborot resurslariga asoslangan didaktik mashqlar tizimi talabalarning tarjimonlik kompetensiyasini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega. Ayniqsa, terminologik aniqlik, matn bilan ishlash ko‘nikmalari, mustaqil fikrlash va muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish qobiliyatlari sezilarli darajada oshdi. Raqamli vositalardan foydalanish talabalarning motivatsiyasi va faolligini ham kuchaytirdi. Olingan natijalarga ko‘ra, ixtisoslashgan tarjimonlarni tayyorlashda axborot resurslariga asoslangan didaktik mashqlar tizimidan foydalanish ta‘lim samaradorligini oshiradi. Biroq bu jarayon samarali bo‘lishi uchun metodik jihatdan puxta rejalashtirish, o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasini rivojlantirish va texnologik infratuzilmani ta‘minlash muhim ahamiyatga ega. Mazkur yondashuv zamonaviy mehnat bozori talablariga javob beradigan malakali tarjimonlarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: sohaviy tarjima; tarjimonlik kompetensiyasi; axborot resurslari; didaktik mashqlar tizimi; raqamli texnologiyalar; tarjima ta‘limi; terminologik bazalar; elektron lug‘atlar; mustaqil fikrlash; integrativ yondashuv.


Kirish

Hozirgi zamondagi olib borilayotgan xalqaro hamkorliklar, ilmiy-texnik taraqqiyot va iqtisodiy aloqalarning jadallashuvi natijasida turli sohalarda professional tarjimonlarning yuqori malaka va zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lishi talab etilmoqda. Shu munosabat bilan sohaviy tarjimonlarni tayyorlash jarayonida didaktik mashqlar tizimini axborot resurslari asosida ishlab chiqish va tatbiq etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bunday tizim talabalarning nafaqat lingvistik bilimlarini, balki axborot izlash, tahlil qilish va tanqidiy baholash kompetensiyalarini rivojlantiradi. Natijada bitiruvchilar real ish sharoitida tezkor va sifatli tarjima faoliyatini amalga oshirishga tayyor bo'ladilar.

Metodist olimlarning nazariyalarini hisobga olgan holda, sohaviy tarjimonlarni tayyorlashda didaktik mashqlar tizimi uch katta guruh: informatsion, operatsion [Jalolov, 2012: 32] va kommunikativ [Шатилов 1986: 120] mashqlarga ajratishni taklif qilmoqchimiz (1-rasmga qarang).

1-rasm

Sohaviy tarjimonlarni tayyorlashda didaktik mashqlar tizimi



Mazkur didaktik mashqlar tizimi nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmaga aylantirish, axborot resurslaridan samarali foydalanish va sohaga oid kommunikativ vazifalarni bajarish kompetensiyasini shakllantirishga

yo‘naltiriladi. Ushbu tizim *tizimlilik, bosqichma-bosqich murakkablashtirish, autentiklik, multimodal yondashuv va natijaga yo‘naltirilganlik* [Richards & Rodgers 2014; Dudley-Evans & St John 1998] kabi didaktik prinsiplarga asoslanadi va o‘ziga xos yo‘nalishda shakllanadi. Ya’ni sohaviy tarjimonlarni tayyorlashda mashqlar tizimi bosqichma-bosqich tashkil etilishi zarur. Bu jarayon talabalarning terminologik bilimlarini chuqurlashtirish, autentik matnlar bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish hamda real kasbiy vaziyatlarda samarali hamkorlik qilish malakasini rivojlantirishga qaratiladi. Quyida har bir bosqich haqida batafsil to‘htalamiz.

I. Informatsion mashqlar tizimi — axborot resurslari bilan tanishtirish va tahlil qilish. Ushbu bosqichda talabalar sohaviy tarjimada qo‘llaniladigan asosiy manbalar — normativ hujjatlar, terminologik bazalar, parallel korpuslar va soha matnlari bilan ishlashni o‘rganadilar. Maqsad: talabalarga resurslardan samarali foydalanish, terminlarni aniqlash, ularni turkumlash va ta’riflash ko‘nikmasini berishdir. Bu bosqichda o‘quvchilar terminlarni kontekstdan ajratib olish, ularning definitsiyalarini shakllantirish va ishonchli manbalar asosida ilmiy tahlil qilishga yo‘naltiriladi.

II. Operatsion mashqlar tizimi — til va mazmun integratsiyasi. Mazkur bosqichda talabalar autentik matnlar — ilmiy maqolalar, texnik pasportlar, shartnomalar ustida ishlash orqali til va mazmuni integratsiyalashni o‘rganadilar. CBI (Content-Based Instruction) va CLIL (Content and Language Integrated Learning) yondashuvlariga tayangan holda, talabalar matnlarni tarjima qilish, tahrirlash va til resurslarini sohaviy kontekstda qo‘llashni amaliyotda sinab ko‘radilar. Bu esa nafaqat tarjima mahoratini oshiradi, balki talabalarni sohaga oid bilimlar bilan ham boyitadi.

III. Kommunikativ mashqlar tizimi — kommunikativ amaliyot. Ushbu bosqich real ish sharoitlariga yaqinlashtirilgan mashqlarni o‘z ichiga oladi. Talabalar kichik guruhlarda hamkorlikda tarjima bajaradilar, o‘zaro muhokama qilish, qaror qabul qilish va birgalikda yakuniy natijaga kelish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Shuningdek, rolli o‘yinlar, loyihaviy topshiriqlar va sohaviy hujjatlarni jamoaviy tarjima qilish orqali talabalar kasbiy kommunikativ kompetensiyalarini shakllantiradilar.

Shu tarzda ishlab chiqilgan uch bosqichli mashqlar tizimi talabalarni resurslar bilan ishlashdan boshlab, mazmuni tahlil qilish, tarjima qilish va nihoyat, real kasbiy faoliyatga yaqin vaziyatlarda hamkorlikda ish olib borishga tayyorlaydi. Bu yondashuv ularning nafaqat lingvistik, balki kasbiy va kommunikativ kompetensiyalarini ham kompleks ravishda rivojlantirish imkonini beradi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqot sohaviy tarjimonlarni axborot resurslari asosida tayyorlashga yo'naltirilgan didaktik mashqlar tizimini ishlab chiqish va uning samaradorligini aniqlashga qaratilgan bo'lib, kompleks metodologik yondashuv asosida amalga oshirildi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

Birinchidan, nazariy tahlil metodi qo'llanilib, tarjimashunoslik, lingvodidaktika, sohaga yo'naltirilgan ta'lim hamda axborot resurslari bilan bog'liq ilmiy manbalar o'rganildi. Ushbu metod orqali sohaviy tarjima kompetensiyasining tarkibiy qismlari, didaktik yondashuvlar va zamonaviy o'qitish tendensiyalari aniqlashtirildi.

Ikkinchidan, qiyosiy-tahliliy metod asosida ingliz va o'zbek tillaridagi tarjima jarayoniga oid misollar tahlil qilinib, axborot resurslaridan foydalanishning o'ziga xos jihatlari ochib berildi. Bu metod tarjima birliklarining funksional va semantik mosligini aniqlashga xizmat qildi.

Uchinchidan, modellashtirish metodi yordamida sohaviy tarjimonlarni tayyorlashga mo'ljallangan didaktik mashqlar tizimi ishlab chiqildi. Ushbu modelda axborot resurslari (onlayn lug'atlar, korpuslar, terminologik bazalar va CAT vositalari) asosiy komponent sifatida integratsiya qilindi.

To'rtinchidan, tajriba-sinov (eksperimental) metod qo'llanilib, ishlab chiqilgan mashqlar tizimi ta'lim jarayoniga joriy etildi. Tajriba guruhleri va nazorat guruhleri o'rtasida o'quv natijalari solishtirilib, metodikaning samaradorligi baholandi.

Beshinchidan, kuzatish va diagnostik baholash metodlari orqali talabalarning tarjima kompetensiyasi rivojlanish darajasi aniqlab borildi. Baholash mezonlari sifatida aniqlik, adekvatlik, terminologik to'g'rilik va axborot resurslaridan foydalanish ko'nikmalari asos qilib olindi.

Shuningdek, statistik tahlil metodlari yordamida tajriba natijalari qayta ishlanib, miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari asosida umumlashtirildi.

Mazkur metodlar majmuasi tadqiqotning ilmiy asoslanganligini ta'minlab, sohaviy tarjimonlarni tayyorlashda axborot resurslariga asoslangan didaktik mashqlar tizimining samaradorligini aniqlash imkonini berdi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi quyidagi omillar bilan izohlanadi:

Hozirgi globallashtirish jarayonlari, xalqaro hamkorlikning kengayishi hamda turli sohalarda axborot almashuvining jadallashtirishi tarjima faoliyatiga bo'lgan talabni keskin oshirmoqda. Ayniqsa, iqtisodiyot, texnologiya,

tibbiyot va huquq kabi sohalarda aniq va sifatli tarjimaga ehtiyoj ortib bormoqda. Bu esa sohaviy tarjimonlarni yuqori darajada tayyorlash masalasini dolzarb ilmiy-pedagogik muammoga aylantiradi.

Zamonaviy tarjima amaliyoti tobora ko‘proq axborot resurslari va raqamli texnologiyalar bilan chambarchas bog‘lanib bormoqda. Onlayn lug‘atlar, terminologik bazalar, korpuslar va CAT vositalar tarjimon faoliyatining ajralmas qismiga aylangan. Shunga qaramay, mavjud ta‘lim tizimida ushbu resurslardan samarali foydalanishni o‘rgatishga yetarli darajada e‘tibor qaratilmayapti.

Bundan tashqari, an‘anaviy o‘qitish usullari ko‘pincha nazariy bilimlarga urg‘u berib, amaliy ko‘nikmalarni, xususan, real ish sharoitiga moslashgan tarjima faoliyatini yetarli darajada shakllantira olmaydi. Natijada bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarligi mehnat bozori talablariga to‘liq javob bermasligi mumkin.

Mazkur muammoni hal etishda axborot resurslariga asoslangan didaktik mashqlar tizimini ishlab chiqish va joriy etish alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuv talabalarda mustaqil ishlash, tanqidiy fikrlash, tezkor axborot izlash va uni to‘g‘ri qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shu nuqtayi nazardan, sohaviy tarjimonlarni axborot resurslari asosida tayyorlashga yo‘naltirilgan didaktik mashqlar tizimini tadqiq etish va uni amaliyotga joriy qilish zamonaviy tarjima ta‘limining eng dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Tahlil va natijalar

Mazkur mashqlar tizimini alohida ko‘rib chiqamiz.

Informatsion mashqlar tizimi — axborot resurslari bilan tanishtirish va tahlil qilishga yo‘naltirilgan mashqlar tizimi. Mazkur mashqlar talabalarga bosqichma-bosqich taqdim etiladi.

1. Kirish bosqichi — Axborot resurslari bilan tanishtirish. Mazkur bosqichda talabalar sohaviy tarjima jarayonida qo‘llaniladigan asosiy axborot resurslari bilan tanishtiriladi. Avvalo, ular me‘yoriy hujjatlar, jumladan, standartlar, reglamentlar hamda texnik yo‘riqnomalarni o‘rganadilar. Ushbu hujjatlar tarjimon faoliyatida asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi va mazmunni aniq va to‘g‘ri yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, soha matnlari: ilmiy maqolalar, texnik pasportlar, shartnomalar kabi turli janrdagi yozma materiallar bilan ishlash ko‘nikmalari shakllantiriladi.

Bundan tashqari, talabalar terminologik bazalar, ya'ni milliy va xalqaro termbanklar, ikki va ko'p tilli lug'atlar bilan ishlashni o'rganadilar. Ushbu resurslar tarjimada atamalarni to'g'ri tanlash va ularni kontekstdagi ma'nosi bilan moslashtirishda muhim o'rin tutadi. Parallel va qiyosiy korpuslardan foydalanish esa tarjima variantlarini tahlil qilish va sohaviy mos keluvchi ekvivalentlarni aniqlash imkonini beradi. Shuningdek, kompaniya uslub qo'llanmalari tarjima jarayonida yagona uslubiy yondashuvni ta'minlash hamda matnlarning korporativ talablarga mos bo'lishini kafolatlaydi. Natijada ushbu bosqich talabalarni sohaviy tarjima uchun zarur bo'lgan manbalar bilan tanishtiribgina qolmay, balki ularni amaliyotda to'g'ri va samarali qo'llashga tayyorlaydi.

Mazkur bosqichda quyidagi mashqlar tavsiya etiladi:

- Normativ hujjatlar, soha matnlari, termbanklar va korpuslar bilan ishlash.
- Kompaniya uslub qo'llanmalarini o'rganish.

Tavsiya etiladigan interaktiv metodlar:

- Simulation-based Translation Tasks — talabalar “haqiqiy tarjimon” rovida, masalan, kontrakt yoki texnik yo'riqnomani tarjima qilish jarayonida resurslardan foydalanishadi.
- VR Translation Scenarios — VR muhitda talabalar resurslardan foydalanib, “mijoz bilan uchrashuv” yoki “texnik yig'ilish”da tarjima simulyatsiyasini bajarishadi.

2. Tahlil bosqichi — terminologiya bilan ishlash. Mazkur bosqichda talabalar terminlarni aniqlash, ularni turkumlash va ta'riflash ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Terminologiya bilan ishlash jarayoni tarjimashunoslikda ham nazariy, ham amaliy jihatdan alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki terminlar sohaviy bilimlarning “tayanch nuqtalari” bo'lib, ular orqali mutaxassislik mazmuni shakllanadi va uzatiladi [Kageura, 2002].

Avvalo, talabalar terminlarni umumtil birliklaridan farqlashni o'rganadilar. Terminologiya nazariyasida [Cabré, 1999] ta'kidlanganidek, terminlar doimiy ravishda muayyan soha doirasida qat'iy ma'no yukiga ega bo'ladi. Shuning uchun ham tahlil jarayonida terminlarni kontekstdan ajratib olish va ularni sohaga oid belgilari asosida aniqlash muhim.

Keyingi bosqichda terminlar tasnifi (klassifikatsiya) amalga oshiriladi. Bunda talabalar terminlarni semantik maydonlar, tematik guruhlar yoki iyerarxik tizimlar asosida joylashtiradilar. Bu yondashuv ularning sohaviy

tasavvurini kengaytiradi va tarjima jarayonida kerakli terminni tez va samarali tanlash imkonini beradi [ISO 704, 2009: 66].

Shuningdek, terminlarga ta'rif berish ko'nikmasi shakllantiriladi. Definitiyalarni tuzishda ilmiy aniqlik, qisqalik va obyektivlik tamoyillari yetakchi o'rin tutadi. Talabalar aniq, o'lchovli va manbaga tayangan ta'riflar yaratish orqali terminologik yozuvlarni ilmiy standartlarga moslashtirishni o'rganadilar. Shu jarayonda ular kontekstli misollar va kollokatsiyalar yordamida terminning real nutqdagi qo'llanilishini ham tahlil qiladilar.

Natijada tahlil bosqichi talabalarni terminologiya bilan ilmiy asosda ishlashga, ularni tizimlashtirishga va sifatli tarjima uchun zarur bo'lgan chuqur leksik-semantik tahlilni amalga oshirishga tayyorlaydi.

Mazkur bosqichda quyidagi mashqlar tavsiya etiladi:

- Soha matnidan terminlarni ajratib olish va ularni “asosiy” va “qo'shimcha” toifalarga ajratish;
- Har bir termin uchun kamida uch mustaqil manbadan muqobil va ta'rif topish;
- Terminning kollokatsiyalarini aniqlash va kontekstli misollar keltirish;
- Matndan terminlarni ajratib olish va turkumlash;
- Termin ekvivalent va ta'riflarini uchta manbadan topish;
- Kollokatsiyalarni aniqlash va kontekstli misollar keltirish.

Tavsiya etiladigan interaktiv metodlar:

- Corpus-based Problem Solving — talabalar parallel korpuslardan terminlarni izlab topadi va qo'llanish misollarini tahlil qiladi.
- Gamification with Translation Quests — terminlarni topish “sarguzasht” tarzida uyushtiriladi: har bir to'g'ri ajratilgan termin uchun ball, eng ko'p ball to'plagan guruh “Termin Qahramonlari” bo'ladi.

3. Sintez bosqichi — Terminologik yozuv (entry) tuzish. Mazkur bosqichda talabalar yig'ilgan terminologik ma'lumotlarni tartibga solib, ularni standartlashtirilgan shaklga keltiradilar. Terminologik yozuv (entry) tuzish jarayoni ilmiy-texnik tarjimada aniqlik va izchillikni ta'minlash uchun muhim hisoblanadi. Avvalo, har bir termin uch tilda: o'zbek, rus, ingliz tillarida keltiriladi hamda ularning so'z turkumi aniq belgilanadi.

Keyingi qadamda, termin uchun definitsiya tuziladi. Definitsiya aniq, o'lchovli va ishonchli manbaga tayangan holda berilishi zarur. Bu tarjimona va tadqiqotchilarga terminning mazmunini to'liq tushunish hamda uni

amaliyotda to'g'ri qo'llash imkonini yaratadi. Shuningdek, terminning kollokatsiyalari va kontekstli misollar keltiriladi. Bunday yondashuv terminning tabiiy nutqdagi qo'llanilishini yoritib beradi va u bilan bog'liq til birliklarini aniqlashga yordam beradi.

Terminologik yozuvda, shuningdek, sinonimlar yoki variantlar ham qayd etiladi. Ularning har biri "preferred", "admitted" yoki "deprecated" belgisi bilan ajratib ko'rsatiladi. Bu esa termin tanlash jarayonida ustuvorlikni aniqlashga yordam beradi. Nihoyat, har bir termin yozuvi manba ma'lumotlari bilan boyitiladi. Bunda to'liq bibliografik havola yoki elektron resurslarga (URL manzillarga) ishora berilishi talab etiladi.

Shunday qilib, sintez bosqichida yaratilgan terminologik yozuvlar talabalarni nafaqat sohaviy terminologiyani o'zlashtirishga, balki ularni ilmiy standartlarga muvofiq ravishda rasmiylashtirishga ham o'rgatadi. Bu bosqich tarjima jarayonida yagona uslubni saqlash va terminlar izchilligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Tavsiya etiladigan interaktiv metodlar:

— Peer Review with AI Assistance — talabalar yozgan termin yozuvini AI (masalan, ChatGPT yoki DeepL Explain) orqali tekshiradi, so'ng guruhlar o'zaro baholashadi.

— Gamification — eng mukammal yozuvlar uchun reyting jadvali yuritiladi.

4. Amaliyot bosqichi — Mini-termbank yaratish. Mazkur bosqichda talabalar oldingi bosqichlarda o'rgangan nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni qo'llab, kichik hajmdagi terminologik bazani mini-termbankni shakllantiradilar. Bu jarayon ularni haqiqiy tarjima amaliyotiga tayyorlashda, shuningdek, terminologiyani tizimlashtirish va standartlashtirishda muhim qadam hisoblanadi.

Avvalo, talabalar tanlangan soha bo'yicha kamida 30–40 termini yig'adilar. Bu terminlar o'zbek, rus va ingliz tillarida keltirilib, har biri uchun aniq definitsiya, kontekstli misollar va sinonimik variantlar qayd etiladi. ISO 704:2009 "Terminology work — Principles and methods" hamda Wüsterning klassik terminologiya tamoyillariga ko'ra, termbank tuzishda birinchi navbatda aniqlik, izchillik va ishonchlilikka amal qilinishi lozim [Wüster, 1979].

Mini-termbankda har bir yozuvga "preferred term" siyosati qo'llaniladi, ya'ni eng maqbul va tavsiya etiladigan variant belgilanadi, qolganlari esa "admitted" yoki "deprecated" sifatida qayd qilinadi. Bu esa terminlardan foydalanishda yagona uslubni shakllantirishga yordam beradi [Cabré,

1999]. Shuningdek, manba ma'lumotlari bibliografik havolalar yoki URL manzillar keltiriladi. Bu talabalarni ilmiy izchilikka o'rgatadi va keyinchalik ularning termin tanlash jarayonida xatolarga yo'l qo'ymasligini ta'minlaydi.

Mini-termbank yaratish jarayoni shuningdek, talabalar o'rtasida hamkorlik va tahliliy fikrlashni rivojlantiradi. Guruh ichida tayyorlangan termbanklarni taqqoslash, ularni birlashtirish va baholash jarayonida talabalar terminlarning qamrovi, aniqligi va amaliy ahamiyatini muhokama qiladilar. Bu esa ularga nafaqat lingvistik, balki kasbiy kompetensiyalarni ham shakllantirish imkonini beradi.

Natijada amaliyot bosqichida yaratilgan mini-termbank talabalarni real tarjima faoliyatiga tayyorlabgina qolmay, balki ularning ilmiy-tadqiqot faoliyati uchun ham mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur bosqichda quyidagi mashqlar tavsiya etiladi:

- Kamida 30–40 terminni o'z ichiga olgan mini-termbankni tuzish;
- Har bir yozuvga “preferred term” siyosatini qo'llash;
- Termbankni guruh ichida taqqoslash va birlashtirish.

Tavsiya etiladigan interaktiv metodlar:

- Simulation-based Translation Tasks — talabalar mini-termbankni real loyihaga (masalan, “energetika shartnomasi” yoki “tibbiyot protokoli”) qo'llab ko'rishadi.
- Gamification with Translation Quests — termbankni taqdim etishda “best practice award” o'yin elementi joriy qilinadi.

5. Refleksiya va baholash bosqichi. Mazkur bosqich ta'lim jarayonining yakuniy, ammo eng muhim qadamlaridan biri bo'lib, talabalarni o'z faoliyatini baholash, xatolarini anglash va kelgusida takomillashtirish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Refleksiya jarayonida talabalar terminologiya bilan ishlash, tarjima usullarini qo'llash va mini-termbank yaratishda erishgan yutuqlari hamda yo'l qo'ygan kamchiliklarini tahlil qiladilar. Bu bosqichda o'z-o'zini nazorat qilish va tanqidiy fikrlash ko'nikmalari shakllanadi [Schön, 1983].

1. Baholash jarayonida esa talabalar tayyorlagan ishlar mezonlar asosida tekshiriladi. Masalan, terminlarni tanlashdagi aniqlik, definitsiyalarning ilmiyligi va o'lchovlilik, kontekstli misollar va sinonimlarning to'g'ri keltirilishi hamda manbalar ishonchlilik asosiy

mezon sifatida olinadi. ISO 11669:2012 “Translation projects — General guidance” hujjatida qayd etilganidek, tarjima faoliyatida baholashning asosiy tamoyillari aniqlik, izchillik va foydalanuvchi ehtiyojlariga moslikdan iboratdir [ISO 11669:2012, 2012: 24].

Refleksiya bosqichi nafaqat talabalar uchun, balki o‘qituvchilar uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. O‘qituvchi talabalar ishlarini tahlil qilish orqali dars jarayonidagi kuchli va zaif tomonlarni aniqlaydi, kelgusi mashg‘ulotlar mazmunini takomillashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shuningdek, talabalar o‘z ishlarini tengdoshlari bilan taqqoslash orqali ham ko‘proq natija oladilar, bu esa ularning kompetensiyalarini rivojlantirishda samarali usul hisoblanadi [Biggs & Tang 2011].

Natijada refleksiya va baholash bosqichi sohaviy tarjima ta’limida yakuniy nazorat mexanizmi sifatida emas, balki o‘quv jarayonining uzluksiz rivojlanishini ta’minlovchi samarali vosita sifatida xizmat qiladi. U talabalarni o‘z faoliyatini tahlil qilishga, mas’uliyatni his qilishga va kelgusida mustaqil ishlashda yuqori darajada sifatni ta’minlashga tayyorlaydi.

Mazkur bosqichda quyidagi mashqlar tavsiya etiladi:

— *Foydalanilgan resurslar auditi* — talabalar ishlatgan lug‘at, termbank, korpus yoki maqolalarni yangilanish darajasi, ishonchliligi va qamrovi bo‘yicha baholaydi.

— *Terminlar bo‘yicha qarorlarni asoslash* — tanlangan atamalar nima sababdan “preferred”, qaysilari “admitted” yoki “deprecated” sifatida belgilanganini izohlash.

— *Coverage gaps va bias tahlili* — terminlar orasidagi bo‘shliqlar (qoplanmagan terminlar) va biryoqlamaliklarni aniqlab, yaxshilash rejasini tuzish.

Baholash mezonlari sifatida quyidagilarni tavsiya etiladi: Terminologik aniqlik — 40% (asosiy og‘irlik shu yerda, chunki termin to‘g‘ri tanlanishi tarjimaning sifatini belgilaydi), manba ishonchliligi va to‘g‘ri qo‘llanishi 20% (ilmiy asoslangan, real ishlatiladigan manbalar), til va uslub mosligi 15% (matnning o‘quvchi va soha talablari uchun mosligi), qaror asoslanganligi va izchilligi 15% (tanlov ortida ilmiy asos bo‘lishi), ish tezligi va formatlash sifati 10% (talabaning termin yozuvini standart shaklda va belgilangan vaqtda topshirishi).

Tavsiya etiladigan interaktiv metodlar:

— Live Multilingual Subtitling — talabalar o‘z taqdimotida ishlatilgan terminlarni jonli ravishda subtitr shaklida chiqarib boradilar, guruh esa baholaydi.

— VR Translation Scenarios — yakuniy refleksiya bosqichida talabalar VR muhitda “xalqaro konferensiya tarjimoni” sifatida chiqish qilib, termbankdan foydalangan holda ishini himoya qiladi.

Ushbu mashqlar tizimi nafaqat talabalarni resurslardan foydalana olishga o‘rgatadi, balki ularning kasbiy kompetensiyasini real ish sharoitiga yaqin muhitda shakllantiradi. Natijada talabalar yuqori sifatli, izchil va standartlashtirilgan sohaviy tarjimalar tayyorlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

II. Operatsion mashqlar tizimi — til va content integratsiyasi — resurslardan foydalanib, autentik matnlarni tarjima qilish va tahrirlashga yo‘naltirilgan mashqlar tizimi. Talabalarda sohaviy tarjima jarayonida content (mazmun)ni to‘g‘ri anglash, til resurslarini samarali qo‘llash va autentik matnlarni sifatli tahrirlash ko‘nikmalarini rivojlantirish. Ushbu tizim CBI (Content-Based Instruction) va CLIL (Content and Language Integrated Learning) yondashuvlariga tayangan bo‘lib, autentik manbalar asosida ishlash orqali til va kasbiy mazmun integratsiyasini ta‘minlaydi. Mazkur tur mashqlar tizimi ham to‘rt bosqichli jarayonni o‘z ichiga oladi. Bular quyidagilar:

1. Kirish va mazmunni tahlil qilish (Content Familiarization) bosqichi.

Mazkur bosqichning maqsadi talabalarda sohaviy (ixtisoslashgan) matnning kommunikativ maqsadi, janri, tuzilishi va terminologik yadrosini tezda “ochish” ko‘nikmasini shakllantirish; tarjima/tahrirga kirishdan oldin kognitiv tayyorgarlikni to‘liq “bootstrap”¹ qilish. Ushbu bosqich keyingi **pre-translation**, **while-translation** va **post-editing** jarayonlari uchun yagona semantik maydon yaratadi.

¹ Bootstrap — ilmiy va ta‘limiy metodologiyada “bootstrap” tushunchasi boshlang‘ich tayanch nuqtadan o‘zini rivojlantirish tamoyilini anglatadi. Ya‘ni talaba murakkab jarayonga kirishdan oldin minimal tayanch bilim va ko‘nikmalarni shakllantirib oladi va shu tayanch orqali keyingi bosqichlarni mustaqil ravishda kengaytirib boradi. Bu jarayon “zero-to-one” yondashuvi deb ham yuritiladi: avval eng zarur elementlar o‘zlashtiriladi, so‘ngra ularga yangi qirralar qo‘shilib boradi. Masalan, tarjima jarayonida bootstrap bosqichi sifatida talaba dastlab matnning janrini, global mazmunini va asosiy terminlarini aniqlaydi. Bu “tayanch qadamlar” unga keyingi murakkab tahlil, tahrir va tarjima bosqichlarida asos bo‘lib xizmat qiladi. Shunday qilib, bootstrap metodikasi talabaning boshlang‘ich kognitiv resurslarini faollashtirish hamda yangi bilimlarni o‘zlashtirishga tayyorlashga yo‘naltirilgan. Bootstrapping (linguistics) [https://en.wikipedia.org/wiki/Bootstrapping_\(linguistics\)](https://en.wikipedia.org/wiki/Bootstrapping_(linguistics)) (murojaat sanasi 20.8.2025)

Ushbu bosqichning kutilayotgan natijalari shundan iboratki, talaba birinchi navbatda matnning janri, auditoriyasi va kommunikativ maqsadini aniqlash ko'nikmasini egallaydi. Shuningdek, u global mazmuni umumlashtirish va mantiqiy bloklarni xaritalash orqali matnning ichki strukturasi ochib bera oladi. Mazkur jarayon davomida talaba yadro terminlarni, barqaror kollokatsiyalarni hamda matnda qo'llanilgan qisqartmalarni ajratib olish malakasiga ega bo'ladi.

Bundan tashqari, matn ichida ishlatilgan bog'lovchi vositalar va referensiyalarni tahlil qilish orqali mantiqiy va grammatik jihatdan bog'lanish va yaxlitlik darajasi (cohesion)ni aniqlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Nihoyat, talaba tarjima brifi² ya'ni tarjima topshirig'i bo'yicha berilgan ko'rsatmalar majmuasi, jumladan buyurtmachi yoki o'qituvchi tomonidan belgilab berilgan maqsad, auditoriya, uslub, til darajasi va boshqa cheklovlar nuqtayi nazaridan muhim bo'lgan cheklovlar va xavfli joylarni — masalan, birliklar (units), uslubiy register (matn yoki nutqning qaysi uslubiy qatlamga oid ekanligi) hamda madaniyatga bog'liq elementlarni (culture-bound units) belgilashni o'rganadi.

Mazkur bosqichning samaradorligini ta'minlash uchun mashqlar aniq ketma-ketlik asosida tashkil etiladi. Avvalo, talabalarni mavzuga jalb qilish va matn mazmuniga tayyorlash maqsadida aktivlashtirish va kontekstga kiritish ishlari amalga oshiriladi. Bunda sarlavha, subtitr yoki vizual elementlar orqali matnning umumiy mazmuni haqida dastlabki taxminlar ilgari suriladi hamda qisqa konseptual savollar yordamida talabalar o'z bilimlarini faollashtiradi.

Keyingi bosqichda, global mazmuni aniqlash va matn strukturasi bilan tanishish jarayoni o'tkaziladi. Talabalar tezkor o'qish (skimming) orqali matnning asosiy g'oyalarini belgilab oladilar, asosiy bo'limlar va mantiqiy bog'lanishlarni xaritalashadi. Bu esa ularga matn janri va diskursiv tuzilishini anglash imkonini beradi.

Shundan so'ng, terminologik yadro va kollokatsiyalarni ajratib olish mashqlari amalga oshiriladi. Ushbu jarayonda talaba matndan eng muhim atamalarni, barqaror birikmalarni va qisqartmalarni aniqlaydi, ularni jadval yoki maxsus ro'yxat shaklida qayd etadi. Bu ishlar nafaqat lug'at boyligini

² Translation brief — tarjima topshirig'i bo'yicha berilgan ko'rsatmalar majmuasi, ya'ni buyurtmachi yoki o'qituvchi tomonidan belgilab berilgan maqsad, auditoriya, uslub, til darajasi va boshqa cheklovlar. Mastering Translation Briefs <https://www.numberanalytics.com/blog/ultimate-guide-to-translation-brief> (murojaat sanasi 20.8.2025)

kengaytiradi, balki keyingi tarjima va tahrir jarayonlarida terminologik izchillikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Navbatdagi qadamda, matndagi mantiqiy va grammatik jihatdan bog'lanish va yaxlitlik vositalari va referens zanjirlari³ ustida ishlanadi. Talabalar bog'lovchi vositalar, olmoshlar va referens birliklarni aniqlash orqali matnning ichki mantiqiy yaxlitligini ko'ra oladilar. Bu esa tarjima jarayonida matnning yaxlitligini va uzluksizligini ta'minlash uchun muhim hisoblanadi.

Yakunda, tarjima brifi uchun cheklovlar va risklarni belgilash bosqichi amalga oshiriladi. Bu jarayonda talabalar matn ichida ehtimoliy murakkablik tug'diruvchi birliklar, o'lchov birliklari, madaniy xos unsurlar, uslubiy register va boshqa qiyinchilik tug'dirishi mumkin bo'lgan elementlarni oldindan ko'rsatib o'tadilar. Natijada tarjima jarayoni aniq strategiya asosida tashkil etilib, potentsial xatoliklar minimallashtiriladi.

Operatsion mashqlar tizimi samarali bo'lishi uchun u bir qator didaktik va metodik tamoyillarga asoslanadi. Avvalo, CLIL (Content and Language Integrated Learning) va CBI (Content-Based Instruction) uyg'unligi tamoyili muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yondashuvga ko'ra, til ko'nikmalari mazmuniy material ustiga quriladi, ya'ni til shakllari o'z ma'nosi va mazmuni bilan birgalikda o'zlashtiriladi. Bunday integratsiya talabalarda faqat lingvistik bilim emas, balki sohaga oid tushunchalarni ham chuqurroq o'zlashtirish imkonini beradi.

Ikkinchi muhim tamoyil, tayanch berish (scaffolding) tamoyilidir. Bu jarayonda talabalarga turli vizual vositalar, KWL jadvallari ("What I Know — What I Want to Know — What I Learned") hamda oldindan tayyorlangan "advance organizer" kabi metodik vositalar taqdim etiladi. Bunday tayanch elementlar talabaning bilim olish jarayonini qulaylashtiradi va yangi bilimni ilgari mavjud bo'lgan bilimlar bilan bog'lash imkonini beradi.

Yana bir tamoyil "macro → micro" yondashuvi bo'lib, bunda talaba, avvalo, matnning umumiy mazmunini xaritalaydi, asosiy g'oyalarni

³ "Referens zanjiri" (ing. *reference chains*) — matnda bir xil obyekt yoki tushuncha turli so'zlar yoki ifodalar yordamida qayta-qayta tilga olinishi natijasida hosil bo'ladigan bog'lanish tizimi. Masalan: "*Energiya tizimi kengaymoqda. U yangi quvvat manbalarini talab qiladi. Bu tizim mintaqaviy rivojlanishda hal qiluvchi rol o'ynaydi*" Bu yerda "*energiya tizimi → u → bu tizim*" — bitta referens zanjiri. Referens zanjirlari yordamida matn ichida cohesion (bog'liqlik) ta'minlanadi, chunki ular gaplar va paragraflarni mantiqiy jihatdan birlashtirib turadi.

aniqlaydi va tuzilmani tushunib oladi. Shundan keyin esa bosqichma-bosqich matndagi terminlar, morfemik birliklar va leksik tafsilotlarga e'tibor qaratadi. Ushbu yondashuv talabaning diqqatini to'g'ri taqsimlashga, murakkab matnni tizimli ravishda tahlil qilishga yordam beradi.

Nihoyat, dalillarga asoslanganlik (evidence-based) tamoyili ham muhim o'rin tutadi. Bu yondashuvda barcha mashqlar va natijalar autentik kontekstga, korpus materiallariga yoki aniq kontent izlariga tayangan holda ishlab chiqiladi. Ya'ni, talabaning o'zlashtirgan bilimlari nazariy taxminlarga emas, balki amaliy va ishonchli dalillarga asoslanadi. Bu esa ularni keyingi tarjima va tahrir jarayonlarida yanada ongli va aniq qarorlar qabul qilishga yo'naltiradi.

Mazkur bosqichda quyidagi mashqlar tavsiya etiladi:

Matn kontekstini aniqlash

— *Vazifa:* Talabalar berilgan autentik matnning (texnik hujjat, shartnoma, ilmiy maqola) mavzusi, maqsadi va mo'ljallangan auditoriyasini aniqlaydi.

— *Natija:* Matn haqida qisqa tahlil jadvali (mavzu, janr, auditoriya, maqsad).

— *Resurslar:* Normativ hujjatlar, soha maqolalari, kompaniya materiallari.

Tavsiya etiladigan interaktiv metodlar:

Simulation-based Translation Tasks — talabalar “mijoz” va “tarjimon” rovida hujjatning maqsadli auditoriyasini aniqlash bo'yicha muzokara olib boradilar. Bu orqali kontekstni faqat nazariy emas, balki amaliy vaziyatda tushunishadi.

Terminologik tayyorgarlik

— *Vazifa:* Matn bo'yicha asosiy 10–15 termini aniqlash, ularning ekvivalentlarini termbankdan topish.

— *Natija:* UZ–RU–EN termin jadvali manbalar bilan.

Corpus-based Problem Solving — talabalar parallel korpuslardan terminlarni topadi va real kontekstlarda qo'llanilishidan kelib chiqib to'g'ri ekvivalentni tanlashadi. Jarayon gamifikatsiya elementlari bilan o'tkaziladi (“Kim eng tez va eng aniq topadi?”).

Ushbu bosqich tarjima va tahrir jarayonining “zero-to-one” fundamenti sifatida talabaning nafaqat matnni tushunishini, balki uning ichki struktura, terminologik tizim va izchillik asoslarini chuqur anglab olishini

ta'minlaydi. Shu tariqa, tarjimon uchun ongli va aniq yo'l xaritasi shakllanadi, ehtimoliy muammolarning oldi olingan bo'ladi hamda leksik tanlovlar kollokatsion asosga tayangan holda amalga oshiriladi.

2. Tarjima amaliyoti (Translation Practice) bosqichi

Mazkur bosqich talabalarning avvalgi "Kirish va mazmuni tahlil qilish (Content Familiarization)" bosqichida egallagan bilim va ko'nikmalarini amaliyotda qo'llashga yo'naltiriladi. Bunda asosiy maqsad — autentik matnlarni bevosita tarjima qilish orqali talabaning lingvistik va kognitiv kompetensiyalarini mustahkamlash, tarjima jarayonida izchillik va aniqlikni ta'minlashdir.

Ushbu bosqichda talabalar matnni semantik birliklarga ajratish, ularni kontekst asosida tarjima qilish va keyinchalik tahrirlash bo'yicha mashqlarni bajaradilar. Tarjima jarayoni oddiy gap darajasidan boshlab, murakkab paragraflar va butun matn darajasigacha ketma-ket rivojlantiriladi. Natijada talabalar turli uslubiy registerlar, terminologik qatlamlar va madaniyatga xos elementlar bilan ishlash tajribasini hosil qiladilar.

Mazkur bosqichda quyidag vazifalari bajariladi:

1. Semantik segmentatsiya — matnni mantiqiy bo'laklarga ajratib tarjima qilish.

Semantik segmentatsiya — bu manba matnni mazmuniy yaxlitlik va kommunikativ vazifa mezonlari asosida bir-birini to'ldiruvchi bo'laklarga (segmentlarga) ajratish jarayoni. Segmentlar odatda gap, gaplar guruhi (mantiqiy birlik) yoki paragraf darajasida belgilanadi. Maqsad — tarjima vaqtida har bir segmentning propozitsional mazmuni, terminologik yadrosi va diskursiv funksiyasi aniq ko'rinishi, shuningdek izchillik (cohesion) va moslik (coherence) saqlanishidir.

Natijada talaba:

— matndagi mavzu o'zgarishi, diskurs belgilar (masalan: shunday qilib, bundan tashqari, natijada), referens zanjir va termin klasterlariga tayangan holda segment chegaralarini aniq qo'yadi;

— har segment uchun mini-maqsad (nima deyapti?) va funksiyani (nega deyapti?) belgilaydi;

— segment darajasida mos tarjima strategiyasini tanlaydi (so'zma-so'z, ma'no markazli, izohli, soddalashtirilgan);

— yakunda segmentlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni saqlagan holda izchil tarjima matnini beradi.

2. Terminologik izchillikni ta‘minlash bir xil termin va atamalarni matn davomida yagona shaklda qo‘llash.

Tarjima jarayonida muhim tamoyillardan biri, terminologik izchillikni saqlashdir. Terminlar sohaga oid asosiy tushunchalarni ifodalaydi va matnning ilmiy hamda amaliy mazmunini belgilab beradi. Agar bir termin turli joylarda turlicha tarjima qilinsa, bu matnning izchilligiga putur yetkazadi va o‘quvchida chalkashlik uyg‘otadi. Shu sababli har bir atama matn davomida yagona shaklda qo‘llanilishi lozim. Natijada terminologik izchillikni ta‘minlash orqali tarjima matni professional darajada tushunarli, aniq va mantiqiy yaxlit bo‘lishiga erishiladi.

Mazkur jarayonda, avvalo, matndagi barcha yadro terminlar aniqlanib, ular asosida maxsus terminologik jadval tuziladi. Keyinchalik har bir termin uchun mos tarjima variantlari ko‘rib chiqilib, korpus, lug‘at hamda parallel matnlar asosida eng maqbul ekvivalent tanlanadi. Belgilangan ekvivalent esa matn davomida qat‘iy ravishda yagona shaklda qo‘llanadi. Zarur hollarda termin yonida izohli tarjima (glossing) yoki qisqa tushuntirish keltirilishi mumkin, biroq asosiy shaklning o‘zgarmasligi ta‘minlanadi.

Misol uchun: “*load balancing*” — “yuklamani muvozanatlash” sifatida belgilansa, butun matn davomida faqat shu shaklda ishlatilishi kerak. Agar ba‘zan “*yukni taqsimlash*” deb tarjima qilinsa, o‘quvchi uni boshqa tushuncha deb qabul qilishi mumkin.

Talabalar ushbu bosqich orqali termin tanlashda qat‘iylik va izchillikni o‘rganadilar, tarjima matnining ilmiy uslubini, mantiqiy yaxlitligini va professionalligini ta‘minlaydilar.

3. Uslubiy moslik — tarjima matnining janr va auditoriyaga mosligini saqlash.

Tarjima jarayonida muhim tamoyillardan yana biri, uslubiy moslikni ta‘minlashdir. Har qanday matn o‘z auditoriyasi va maqsadiga qarab muayyan uslubiy registerda yoziladi. Shuning uchun tarjimon nafaqat leksik-semantik mazmuni, balki matnning uslubiy xususiyatlarini ham to‘g‘ri aks ettirishi zarur. Bundan maqsadi tarjima matnining asl manbadagi janr talablariga mosligi va mo‘ljallangan auditoriya uchun tushunarli, tabiiy va maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lishini ta‘minlash.

Mazkur jarayonda, avvalo, manba matnning janri aniqlanadi, ya‘ni u ilmiy maqola, texnik hisobot, publitsistik maqola, rasmiy hujjat yoki badiiy matn shaklida ekanligi belgilab olinadi. Shu asosda tarjimada qo‘llaniladigan

uslubiy vositalar tanlanadi: masalan, ilmiy va texnik matnlarda rasmiy terminologiya, aniq va obyektiv ifoda ustuvor bo'lsa, publitsistik yoki badiiy matnlarda obrazli va ta'sirchan til vositalari qo'llanadi. Keyingi bosqichda auditoriya xususiyatlari hisobga olinadi: mutaxassislar uchun mo'ljallangan tarjima matnida texnik terminlar saqlanadi, keng jamoatchilik uchun esa ular sodda va tushunarli shaklda izohlanadi. Tarjima davomida intonatsion moslik, stilistik rang-baranglik va muloqot uslubi manba matniga yaqinlashtiriladi, ammo maqsadli tilning normalariga zid bo'lmagan holda moslashtiriladi.

Misol uchun: ilmiy maqolada "*The data indicate a significant improvement in efficiency*" jumlasini "*Ma'lumotlar samaradorlikning sezilarli oshganini ko'rsatmoqda*" tarzida aniq va rasmiy uslubda tarjima qilinadi. Ammo publitsistik matnda "*This breakthrough could change the future of energy*" jumlasini "*Bu yutuq energetika kelajagini o'zgartirishi mumkin*" kabi ta'sirchanroq ifodada beriladi.

Uslubiy moslikni saqlash orqali tarjima matni o'z auditoriyasiga maqsadli ta'sir ko'rsatadi, janr talablariga javob beradi va o'quvchi uchun tabiiy hamda mantiqiy qabul qilinadigan shaklga ega bo'ladi.

4. Madaniy moslashtirish — culture-bound elementlarni o'zbek tilida ekvivalent yoki izohli shaklda berish.

Tarjima jarayonida madaniyatga xos birliklar, ya'ni culture-bound elements alohida e'tibor talab qiladi. Bunday birliklar ma'lum bir xalqning urf-odatlarini, ijtimoiy hayoti, tarixiy tajribasi yoki lingvomadaniyati bilan bevosita bog'liq bo'lib, ularning ma'nosini boshqa tilga to'g'ridan-to'g'ri ko'chirish ko'pincha qiyinchilik tug'diradi. Shu sababli, tarjimada madaniy moslashtirish jarayoni amalga oshiriladi.

Jarayon quyidagicha kechadi: avvalo, matnda mavjud madaniyatga oid birliklar aniqlanadi va ular riskli elementlar sifatida belgilab olinadi. Keyin ularning mazmuni kontekst asosida tahlil qilinadi va maqsadli auditoriya uchun eng mos ekvivalent tanlanadi. Agar bunday ekvivalent mavjud bo'lmasa, izohli tarjima yoki qisqa tushuntirish qo'llanadi. Shu bilan birga, tarjimada ushbu birliklarning madaniy semantik yukini imkon qadar saqlab qolish muhim ahamiyat kasb etadi.

Misol tariqasida, ingliz tilidagi *Thanksgiving* atamasini bevosita "*Rahmat aytish kuni*" deb tarjima qilish yetarli bo'lmaydi, chunki bu birlik Amerika madaniyatiga xos bo'lgan tarixiy bayramni anglatadi. Shu holatda uni "*Amerika xalqi nishonlaydigan minnatdorlik bayrami (Thanksgiving)*" tarzida izohli shaklda berish maqsadga muvofiqdir.

Natijada, madaniy moslashtirish bosqichi tarjima matnining o‘quvchi tomonidan to‘g‘ri qabul qilinishini, madaniyatlararo tafovutlar tufayli yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan tushunmovchiliklarning oldi olinishi va kommunikativ samaradorlikning saqlanishini ta‘minlaydi.

5. Tahrirlash — tarjima qilingan matnni qayta ko‘rib chiqish, xatolarni bartaraf etish.

Tarjima jarayonining yakuniy, ammo eng muhim bosqichlaridan biri — tahririy tekshirishdir. Ushbu bosqichda tarjimon tomonidan yaratilgan matn chuqur qayta ko‘rib chiqiladi, aniqlik, izchillik va uslubiy moslik nuqtayi nazaridan baholanadi hamda ehtimoliy xatolar bartaraf etiladi.

Jarayon, avvalo, leksik va grammatik xatolarni aniqlashdan boshlanadi: noto‘g‘ri tanlangan so‘zlar, chalkash birliklar, morfologik va sintaktik nuqsonlar tuzatiladi. Keyin terminologik izchillik yana bir bor tekshiriladi, ya‘ni barcha atamalar yagona shaklda qo‘llanganligi ta‘minlanadi. Shundan so‘ng, matnning uslubiy registeri baholanadi: ilmiy matnda rasmiy-obyektiv, publitsistik matnda esa obrazli va ta‘sirchan ifodalar ustuvorligini nazorat qilish zarur.

Tahrirlash davomida, shuningdek, cohesion vositalar (bog‘lovchilar, referens birliklar, mantiqiy o‘tishlar)ning to‘g‘ri qo‘llanilganligi va matnning umumiy izchilligi ham nazorat qilinadi. Madaniyatga oid birliklar va ehtimoliy riskli elementlarning tarjimasini alohida ko‘rib chiqilib, kerak bo‘lsa izohlar to‘ldiriladi.

Bu bosqichning yakunida tarjima matni kommunikativ jihatdan to‘liq tayyor holatga keltiriladi, o‘quvchi uchun tushunarli, aniq va maqsadga muvofiq shaklga ega bo‘ladi. Natijada, tahririy tekshirish bosqichi nafaqat tarjima sifatini kafolatlaydi, balki tarjimonning professional yondashuvini ham namoyon etadi. Shuningdek, talaba nafaqat matnni tarjima qilish, balki tarjima jarayonida yuzaga keladigan ehtimoliy muammolarni mustaqil hal etish, leksik tanlovni kollokatsion asosda amalga oshirish va tahrir jarayonida sifatni nazorat qilish malakasiga ega bo‘ladi.

III. Kommunikativ mashqlar tizimi — kommunikativ amaliyot

Mazkur bosqich mashqlar tizimining yakuniy qismidir va u talabalarning kasbiy faoliyatga tayyorgarligini oshirishni ko‘zda tutadi. Ushbu bosqichda mashqlar real ish sharoitlariga yaqinlashtirilgan tarzda tashkil qilinadi, ya‘ni talabalar nafaqat individual tarzda tarjima bilan shug‘ullanadilar, balki kichik guruhlarda hamkorlikda ishlash, o‘zaro muhokama qilish va birgalikda qaror qabul qilish jarayonlariga jalb qilinadilar. Bunda talabalar

o‘z tarjima qarorlarini himoya qilish, muqobil variantlarni taqqoslash va yakuniy natijaga kelish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.

Kommunikativ mashqlar tizimida rolli o‘yinlar alohida ahamiyat kasb etadi. Masalan, talabalar tarjimon, muharrir yoki buyurtmachi rolida ishtirok etib, turli vaziyatlarni modellashtiradilar va o‘zaro muloqot asosida muammolarni hal qiladilar. Shuningdek, loyihaviy topshiriqlar orqali talabalar sohaga oid hujjatlarni jamoaviy tarjima qilishadi, bunda nafaqat lingvistik, balki tashkiliy va kasbiy kompetensiyalarini ham rivojlantiradilar.

Bu bosqich talabalarda kasbiy kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan bo‘lib, ular amaliyotda talab etiladigan ko‘nikmalarni egallaydilar: guruhda ishlash, vaqtni boshqarish, muloqot madaniyatiga rioya qilish, tarjima qarorlarini asoslash va ularni birgalikda tahrirlash.

Shu tarzda ishlab chiqilgan uch bosqichli mashqlar tizimi talabalarni resurslar bilan ishlashdan boshlab, mazmuni tahlil qilish, tarjima qilish va nihoyat, real kasbiy faoliyatga yaqin vaziyatlarda hamkorlikda ish olib borishga tayyorlaydi. Mazkur yondashuv nafaqat lingvistik, balki kasbiy va kommunikativ kompetensiyalarni ham kompleks ravishda rivojlantirish imkonini beradi.

Kommunikativ mashqlar tizimi mashg‘ulotlarning yakuniy bosqichi bo‘lib, u talabalarning kasbiy tayyorgarligini oshirishga va real tarjima jarayoniga yaqin sharoitlarda faoliyat olib borishga yo‘naltiriladi. Ushbu bosqichning asosiy xususiyati shundaki, u talabalarda nafaqat til va tarjima ko‘nikmalarini, balki jamoada ishlash, hamkorlik qilish, qaror qabul qilish va muloqot yuritish kompetensiyalarini ham shakllantiradi.

1. Rolli o‘yinlar (Role-play activities)

Talabalar tarjimon, muharrir yoki buyurtmachi rolida ishtirok etadilar va axborot resurslaridan (terminologik bazalar, elektron lug‘atlar, parallel korpuslar) foydalanib muammolarni hal qiladilar. Masalan, tarjimon texnik terminlarni terminologik bazadan izlaydi, muharrir ularning izchilligini tekshiradi, buyurtmachi esa matnning maqsadli auditoriyaga mosligini baholaydi. Bu mashq talabalarning axborot resurslari bilan ishlash va ularni kasbiy muloqotda qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

2. Loyihaviy topshiriqlar (Project-based assignments)

Talabalar kichik guruhlariga bo‘linib, autentik hujjatlarni (masalan, xalqaro texnik reglamentlar yoki sohaviy standartlar) tarjima qilishadi. Jarayon davomida ular onlayn resurslar (Google Scholar, IATE, Glosbe, sohaviy

portallar) orqali ma'lumot yig'adilar, terminlarni taqqoslaydilar va yakuniy loyiha sifatida jamoaviy tarjimani taqdim etadilar. Bu metod talabalarga resurslardan kompleks foydalanish, vaqtni boshqarish va vazifalarni bo'lishishni o'rgatadi.

3. Jamoaviy tahrir (Collaborative editing)

Guruh a'zolari onlayn hujjat muharrirlari (Google Docs, Overleaf, Trados Team Tools) yordamida birgalikda tarjimani tahrir qiladilar. Terminlar yagona shaklda qo'llanganini tekshiradilar, resurslardan olingan dalillarni muhokama qilib, birgalikda optimal variantni tanlaydilar. Natijada, talabalar kritik fikrlash va axborot asosida qaror qabul qilish ko'nikmalarini mustahkamlashadi.

4. Interaktiv metodlar va resurslar integratsiyasi:

— Debatlar (Debates): ikki guruh bir xil matnni turli resurslarga tayangan holda tarjima qiladi va o'z variantlarini himoya qiladi.

— Case-study: real tarjima loyihasida yuzaga kelgan muammo (masalan, bir terminning turli kontekstlardagi variantlari) muhokama qilinadi va resurslar orqali yechim topiladi.

— Peer review (o'zaro baholash): talabalar bir-birining tarjimalarini tahlil qilib, resurslarga tayangan holda fikr bildiradilar.

— Masofaviy hamkorlik: onlayn platformalarda jamoaviy tarjima mashqlari bajariladi, resurslar bilan ishlash ko'nikmalari kuchaytiriladi.

Mazkur bosqich yakunida talabalar nafaqat lingvistik va tarjima ko'nikmalariga, balki **axborot resurslaridan jamoaviy foydalanish, ularni tahlil qilish va qaror qabul qilish** kompetensiyalariga ham ega bo'ladilar. Shu tarzda, uch bosqichli mashqlar tizimi talabalarga resurslardan foydalanishdan boshlab, mazmunni tahlil qilish, tarjima qilish va real kasbiy vaziyatlarda jamoaviy faoliyat olib borishga qadar kompleks tayyorgarlikni ta'minlaydi. Bu yondashuv nafaqat lingvistik, balki **kasbiy va kommunikativ kompetensiyalarni ham axborot resurslari integratsiyasi asosida** rivojlantiradi.

Olimlarning fikricha, didaktik mashqlar tizimi sohaga xos matnlar bilan ishlash malakasini shakllantirishda ikki tomonlama ta'sir ko'rsatadi: bir tomondan, talabalar sohaviy terminologiya, frazeologiya va matn tuzilishiga oid bilimlarni mustahkamlaydi; ikkinchi tomondan, axborot resurslaridan tezkor va tanqidiy foydalanish malakasini rivojlantiradi [Bowker, 2015; Biel, 2018]. Shu bois, mashqlar tizimini ishlab chiqishda

autentik materiallar va zamonaviy tarjima texnologiyalari majburiy komponent sifatida kiritiladi.

Shunday qilib, biz tomondan ishlab chiqilgan uch bosqichli mashqlar tizimi tarjimonlarni tayyorlashda uzviy izchillikni ta'minlaydi. Dastlab talabalar matnning mazmuni va strukturasi tahlil qilish orqali kognitiv asoslarni shakllantiradilar; keyingi bosqichda esa tarjima amaliyoti orqali terminologik izchillik, uslubiy moslik va semantik aniqlikni mustahkamlaydilar. Nihoyat, kommunikativ mashqlar jarayonida real ish sharoitlariga yaqin vaziyatlarda hamkorlikda tarjima qilish, muhokama va qaror qabul qilish, hamda interaktiv metodlardan foydalanish orqali kasbiy-kommunikativ kompetensiyalari rivojlantiriladi. Ushbu tizim talabaning lingvistik, uslubiy va kasbiy kompetensiyalarini kompleks ravishda shakllantirishga xizmat qiladi hamda axborot resurslarini integratsiyalash asosida zamonaviy tarjima ta'limining metodik modelini taklif etadi.

Xulosa va takliflar

Mazkur maqolada sohaviy tarjimonlarni tayyorlashda axborot resurslarining o'рни va ahamiyati, shuningdek, didaktik mashqlar tizimini shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari batafsil o'rganildi. Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy xalqaro hamkorlik, ilmiy-texnik taraqqiyot va iqtisodiy integratsiya jarayonlari sharoitida tarjimonlardan an'anaviy lingvistik bilimlar bilan bir qatorda axborot texnologiyalaridan foydalanish, zamonaviy resurslarni tahlil qilish, ular orasidan dolzarblarini tanlash va samarali qo'llash kabi ko'nikmalarga ega bo'lish talab etilmoqda.

Maqola doirasida ishlab chiqilgan didaktik mashqlar tizimi — informatsion, operatsion va kommunikativ mashqlar — o'zaro uzviy bog'liq holda talabalarning kasbiy tayyorgarligini yanada yuqori bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi. Informatsion mashqlar talabalarda sohaviy terminologiya, atamalar va autentik manbalar bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirsa, operatsion mashqlar til va mazmun integratsiyasi asosida tarjima jarayonini chuqurroq o'zlashtirishga yordam beradi. Kommunikativ mashqlar esa real ish sharoitiga yaqin vaziyatlarda amaliyot o'tkazishga, guruhli faoliyat, tezkor qaror qabul qilish, hamkorlikda ishlash va professional muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga imkon beradi.

Shu bilan birga, maqolada axborot resurslariga tayangan holda yaratilgan mashqlar tizimining o'quv jarayonidagi afzalliklari ham asoslandi. Jumladan, bunday tizim talabalarni mustaqil ishlashga, ijodiy yondashishga, tanqidiy tahlil va baholash malakalarini shakllantirishga

undaydi. Bu esa sohaviy tarjimonlarning nafaqat nazariy bilimlarini, balki amaliy faoliyatda qo'llash imkoniyatlarini ham kengaytiradi.

Yana bir muhim jihat shuki, ushbu maqolada taqdim etilgan mashqlar tizimi talabalarda axborot madaniyati, raqamli savodxonlik, mustaqil o'rganish va o'zini-o'zi rivojlantirish ko'nikmalarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Shuningdek, ularning kasbiy tafakkuri va tarjima faoliyatida samaradorlikni oshirish uchun zarur bo'lgan kommunikativ, kognitiv va pragmatik kompetensiyalarni shakllantirishda asosiy o'rin tutadi.

Umuman olganda, ushbu maqolada olib borilgan tadqiqotlar natijasida ishlab chiqilgan lingvodidaktik yondashuv va mashqlar tizimi sohaviy tarjimonlarni tayyorlash jarayonini yanada sifatli, tizimli va samarali qilish imkonini beradi. Mazkur tizim tarjima ta'limining innovatsion usullari qatoriga kirib, talabalarning kasbiy raqobatbardoshligini ta'minlash, ularni xalqaro mehnat bozorida munosib o'rin egallashiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Bakirova X.B. Sohaviy tarjimaga o'qitishining nazariy va lingvodidaktik tamoyillari.// O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2025. — 11-jild, № 5. — B. 151-171. <https://doi.org/10.36078/1762330515>

Biel Ł. Lost in the Eurofog: The Textual Fit of Translated Law. — Frankfurt am Main: Peter Lang, 2018. — 354 p.

Biggs J., Tang C. Teaching for Quality Learning at University. — 4th ed. — Maidenhead: Open University Press, 2011. — 389 p.

Bowker L. Computer-Aided Translation Technology: A Practical Introduction. — Ottawa: University of Ottawa Press, 2015. — 185 p.

Cabré M. T. Terminology: Theory, Methods and Applications. — Amsterdam: John Benjamins Publishing Company, 1999. — 248 p.

Dudley-Evans T., St John M. J. Developments in English for Specific Purposes: A Multi-Disciplinary Approach. — Cambridge: Cambridge University Press, 1998. — 301 p.

ISO 11669:2012. Translation Projects — General Guidance. — Geneva: International Organization for Standardization, 2012. — 24 p.

ISO 704:2009. Terminology Work — Principles and Methods. — Geneva: International Organization for Standardization, 2009. — 66 p.

Jalolov J.J. Chet tili o'qitish metodikasi: chet tillari oliy o'quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik. — Toshkent: O'qituvchi, 2012. — 432 b.

Kageura K. *The Dynamics of Terminology: A Descriptive Theory of Term Formation and Terminological Growth*. — Amsterdam: John Benjamins, 2002. — 322 p.

Richards J. C., Rodgers T. S. *Approaches and Methods in Language Teaching*. — 3rd ed. — Cambridge: Cambridge University Press, 2014. — 410 p.

Schön D. A. *The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action*. — New York: Basic Books, 1983. — 374 p.

Wüster E. *Einführung in die allgemeine Terminologielehre und terminologische Lexikographie*. — Bonn: Romanistischer Verlag, 1979. — 299 s.

Шатилов С.Ф. *Методика обучения немецкому языку в средней школе: учебное пособие для студентов педагогических институтов*. — 2-е изд., дораб. — М.: Просвещение, 1986. — 223 с.

References

Bakirova, X. B. (2025). *O‘zbekistonda xorijiy tillar*, vol. 11, No. 5, pp. 151–171, <https://doi.org/10.36078/1762330515>

Biel, Ł. (2018). *Lost in the Eurofog: The Textual Fit of Translated Law*, Frankfurt am Main, Peter Lang.

Biggs, J., & Tang, C. (2011). *Teaching for Quality Learning at University*, Maidenhead, Open University Press.

Bowker, L. (2015). *Computer-Aided Translation Technology: A Practical Introduction*, Ottawa, University of Ottawa Press.

Cabré, M. T. (1999). *Terminology: Theory, Methods and Applications*, Amsterdam, John Benjamins Publishing Company.

Dudley-Evans, T., & St John, M. J. (1998). *Developments in English for Specific Purposes: A Multi-Disciplinary Approach*, Cambridge, Cambridge University Press.

ISO 11669:2012. (2012). *Translation Projects, General Guidance*, Geneva, International Organization for Standardization.

ISO 704:2009. (2009). *Terminology Work, Principles and Methods*, Geneva, International Organization for Standardization.

Jalolov, J. J. (2012). *Chet tili o'qitish metodikasi (Methods of Teaching Foreign Languages)*, Tashkent, O'qituvchi.

Kageura, K. (2002). *The Dynamics of Terminology: A Descriptive Theory of Term Formation and Terminological Growth*, Amsterdam, John Benjamins.

Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). *Approaches and Methods in Language Teaching*, Cambridge, Cambridge University Press.

Schön, D. A. (1983). *The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action*, New York, Basic Books.

Wüster, E. (1979). *Einführung in die allgemeine Terminologielehre und terminologische Lexikographie*, Bonn, Romanistischer Verlag. (In Germ.)

Shatilov, S. F. (1986). *Metodika obucheniya nemetskomu yazyku v srednei shkole (Methods of Teaching German in Secondary School)*, Moscow, Prosveshchenie.